

**ROSSIYA FEDERATSIYASI QUOLLI KUCHLARI TARKIBIDAGI
RADIATSION, KIMYOVIY VA BIOLOGIK MUHOFAZA QO'SHINLARINING
MAXSUS HARBIY OPERATSIYADAGI ROLI**

Suyarov Zayniddin Xolbutaevich

*dotsent, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti QK BShF
Jangovar ta'minot kafedrası RKBM sikli dotsenti*

Saksonov Saidmurod Berdimurodovich

*O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti QK BShF Jangovar
ta'minot kafedrası RKBM sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jangovar harakatlar maydonida Rossiya Federatsiyasi qo'shinlarini Ukrainada olib borayotgan maxsus harbiy operatsiyalarda radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza (keyinchalik matnda RKB muhofaza) qo'shinlari tomonidan bajarilayotgan RKB muhofaza vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: RKB muhofaza, RKB muhofaza (tadbirlar) vazifalari, RKB xavfsizlik, RKB xavfsizlik sohasidagi tahdidlar, RF QK maxsus harbiy operatsiyasi, RKB muhofaza qo'shinlari, RKB xavfli obyektlar.

Аннотация. В статье рассматриваются задачи (мероприятия) радиационной, химической и биологической (РХБ) защиты, выполняемые войсками РХБ защиты Вооруженных Сил Российской Федерации в ходе специальной военной операции.

Ключевые слова: РХБ защита, задачи (мероприятия) РХБ защиты, РХБ безопасность, угрозы в области РХБ безопасности, специальная военная операция ВС РФ, войска РХБ защиты ВС РФ, подразделения войск РХБ защиты ВС РФ, потенциально опасные объекты, РХБ опасные объекты.

Abstract. The article examines the tasks (activities) of radiation, chemical and biological (RCB) protection performed by the RCB protection troops of the Armed Forces of the Russian Federation in modern conditions.

Keywords: RCB protection, tasks (measures) of RCB protection, RCB security, threats in the area of RCB security, special military operation by RF AF, RCB protection troops of the RF AF, subunits of RCB protection troops, potentially hazardous facilities, RCB-risk facilities.

Zamonaviy jangovar harakatlarda RF Qurolli Kuchlari tarkibidagi RKB muhofaza qo'shinlari tomonidan qo'shilmalarni muhofaza etish tamoyillariga jahon hamjamiyatining rivojlanish omillari, qo'shinlarning jang maydonidagi RKB xavfsizlik sohasidagi tahdidlarga hamda jamiyat va ishlab chiqarishning barcha sohalarida yangi texnologiyalarni joriy etilishi, qo'shinlar yangi prinsiplarga asoslangan qurol-aslahalar bilan ta'minlanishiga uzviy bog'liqdir.



Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, RF Qurolli Kuchlari tarkibini tinchlik davrida zamonaviy janglarga tayyorlashdagi harakatlarning maqsadi, amalga oshirish shakli, xususiyatlarini e'tiborga olgan holda qo'shinlarni tayyorlash muhim rol o'ynaydi, ushbu vaziyatlarda qo'shinlarni jangovar (operativ) ta'minotini tashkillashtirish mohiyati muhim ahamiyatga ega bo'ladi hamda jangovar harakatlar maydonida qo'shinlarni RKB muhofazasi Qurolli Kuchlarni va aholini muhofaza tizimida muhim o'rin egallaydi [1].

Jangovar harakatlar maydonida qo'shinlarini RKB muhofazasi harbiy birlashmalar tarkibini ommaviy qirg'in qurollarining (OQQ) shikastlovchi omillari ta'sirini kamaytirish hamda radiatsion, kimyoviy va biologik (RKB) xavfli obyektlarda avariya sodir bo'lishi natijasida yuzaga keladigan zaharlanishlarni kamaytirish, yuqori aniqlikdagi va boshqa turdagi qurollardan zararlanishlarni susaytirish, dushmanga yondiruvchi vositalar bilan talafot yetkazish maqsadida tashkillashtiriladi va amalga oshiriladi.

Ukrainada olib borilayotgan jangovar harakatlarda RF qo'shinlarining RKB muhofazasining maqsadlari quyidagi asosiy vazifalarni bajarish orqali erishilmoqda: RKB vaziyatni aniqlash va baholash; RKB vaziyatlarda harakatlanayotgan qo'shilma, bo'linmalarni xavfsizligini ta'minlash; bo'linma va obyektlarni ko'rinuvchanligini kamaytirish; dushmanga yondiruvchi vositalar bilan talafot yetkazish; qo'shinlarni harakatlanishiga ta'sir etadigan RKB xavfli bo'lgan obyektlarda avariya oqibatlarini bartaraf etishda bo'linmalarni RKB muhofazaini tashkillashtirish va amalga oshirish.

RF QK qo'shinlarini jangovar harakatlar mobaynida RKB muhofaza qo'shinlari jang maydonida quyidagi RKB muhofaza vazifalarini bajarishmoqda: yadroviy qurol portlashini aniqlash; qo'shinlar joylashgan pozitsiyalar, harakatlanish marshrutlari, egallab olingan shahar, (bino, obyektlar) boshqaruv markazlari joylashgan rayonlarda radiatsion, kimyoviy va biologik razvedka olib borish; aneksiya qilingan rayonlarda, sanoat korxonalari hamda boshqa muhim obyektlarda radiatsion, kimyoviy va biologik nazorat tadbirlarini amalga oshirish; yadroviy portlashlar, RKB vaziyatlar to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va qo'shinlarga yuborish; epidemiya tarqalish xavfi bo'lgan rayonlarda hamda zaharlangan qurol-aslaha (qo'lga olingan shaxsiy tarkib, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalar) va qo'shinlar harakatlanayotgan rayonlar, pozitsiyalar, yo'llar, inshootlarni zararsizlantirish, maxsus va sanitar ishlov o'tkazish tadbirlarini amalga oshirish; dushmanning razvedka vositalari va qurollarni boshqarish tizimlariga aerozollar bilan qarshilik ko'rsatish; harbiy texnikalar va qurol-aslahalarga niqoblovchi qoplamalar (radioto'lqin yutuvchi ko'pik) bilan qoplash; ognemyot bo'linmalari bilan dushmanga yondiruvchi qurollar bilan ta'sir etish natijasida ularga talafot yetkazish; RKB muhofaza qo'shinlari tarkibi RKB xavfli obyektlarda avariya oqibatlarini bartaraf etish hamda RKB muhofaza qurol-aslahalari va himoya vositalarini ta'mirlash tadbirlarida qatnashishmoqda [2].

Suriya Arab Respublikasida olib borilgan jangovar va maxsus vazifalarni bajarish davrida RKB razvedka, aerozollar bilan qarshilik ko'rsatish va og'ir ognemyot bo'linmalari jangovar harakatlarda qatnashishdi.





RKB razvedka bo'linmalari demilitarizatsiya etilgan rayonlarda jangari guruhlar tomonidan qo'llanilgan kimyoviy qurollarni va kimyoviy toksik moddalarni o'z vaqtida aniqlash hamda RKB vaziyatni doimo baholash va qo'shinlarni ogohlantirish tadbirlarini bajarishgan. RKB razvedka bo'linmalari jangovar harakatlar mobaynida asosiy kuchlar tarkibida harakatlanib ishg'ol qilingan shahar (aholi punktlari) infratuzilmalarida mavjud bo'lgan obyektlar (sanoat zonalari, ishlab chiqarish korxonalari, energetika, tibbiyot obyektlari va b.) hududida RKB vaziyatni aniqlash va baholash, RKB vaziyatlarda qo'shinlarni (vaziyat to'g'risida ogohlantirish) muhofazasi tadbirlarini bajarib kelishmoqda [1].

Suriya Arab Respublikasi Qurolli Kuchlari va RF QK birlashgan turkumi tomonidan amalga oshirilgan muhim ahamiyatga ega bo'lgan jangovar operatsiyalarda RKB muhofaza qo'shinlari tarkibidagi og'ir ognemyot bo'linmalari qo'llanilgan va jangovar harakatlarda samarali qo'llanilishini tasdiqlagan. Jangovar operatsiyalarda turli vaziyatlar sababli artilleriya va aviatsiyani samarali qo'llash imkoniyatlari bo'lmaganda og'ir ognemyot bo'linmalarni bino va inshootlarda mustahkam o'rnatib olgan terrorchi guruhlar olovli zarbalar berilishi natijasida terrorchi guruhlar tor-mor qilingan. Jangovar harakatlar mobaynida og'ir ognemyot bo'linmalari otish pozitsiyalarini egallash va otishga tayyorgarlik ko'rish davrida jangari guruhlar o't ochilishini kutmasdan jangovar harakatlar rayonidan chiqib ketishgan va ushbu rayonga qaytishmaganligi kuzatilgan [2].

Ukrainada olib borilayotgan harbiy maxsus operatsiyada qatnashayotgan qo'shinlar tarkibidagi RKB muhofaza bo'linmalarini bajarilayotgan vazifalarga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Jangovar harakatlar maydonida mavjud bo'lgan xavfli obyektlar atom elektr stansiyalari (AES), kimyoviy sanoat korxonalarida toksik kimyoviy moddalar zaxirasi borligi hamda biologik xavfli bo'lgan (biologik faol kasallik qo'zg'atuvchi patogenlar) ob'ektlar jangovar harakatlar maydonida RKB vaziyatni yuzaga kelish ehtimolini oshiradi va qo'shinlarni jangovar vazifalarini bajarishga bir qancha qiynchiliklar tug'diradi. RKB xavfli obyektlarda avariya (terakt) sodir bo'lishi natijasida jangovar harakatlar maydonida RKB vaziyat yuzaga keladi va buning natijasida qo'shinlar, tinch aholiga xavf tug'iladi. Bundan tashqari Ukraina va unga chegaradosh g'arb davlatlariga ham radioaktiv, zaharli moddalar va biologik vositalar bulutining tarqalish ehtimoli oshadi. 1986-yilning aprel oyida Chernobil atom elektrstansiyasida (ChAES) avariya to'g'risidagi xabar butun jahonni larzaga solgan, bu falokat 20-asrning eng katta fojiasi bo'lgan edi. Avariya natijasida 56000 ² km. maydon radioaktiv moddalar bilan zaharlangan (1-rasm).





1-rasm. Chernobil atom elektrstansiyasining to'rtinchi energiyabloki avariya dan keyingi holati

Kelajakda Ukraina hududidagi yadroviy obyektlarda avariya sodir bo'lishini oldini olish maqsadida RF qo'shinlari maxsus operatsiyani olib borish jarayonida Chernobil va Zaparojskiy atom elektrostansiyalari va uning atrofidagi hududlarda o'zlarining nazoratini o'rnatishdi (2-rasm) [3].



2-rasm. RF QK harbiy xizmatchilari Zaparojskiy atom elektrostansiyasida normal holatda ishlashini ta'minlash tadbirlarini amalga oshirish jarayoni

Ushbu vaziyatda RF QK qo'shinlari tarkibidagi RKB muhofaza bo'linmalari va boshqaruv organlari Chernobil va Zaparojskiy atom elektrostansiyalari hududida o'ta muhim bo'lgan radiatsion vaziyatni aniqlash va baholash, aniqlangan vaziyatni harbiy boshqaruv organlariga yetkazish tadbirlarini bajarish yuklatilgan. Ukrainada o'tkazilayotgan maxsus harbiy operatsiyada RKB muhofaza qo'shinlari mutaxassislari harbiy boshqaruv organlari manfaatida yadroviy obyektlarda radiatsion vaziyatni aniqlash va baholash, radiatsion vaziyatlarini tahlil etish va qaror qabul qilish markazlariga yuborish tadbirlarini amalga oshirishmoqda (3-rasm) [3].



3-rasm. RF Qurolli Kuchlari RKB muhofaza qo'shilari Zaparojskiy atom elektrostansiyasi hududida radiatsion nazorat jarayoni



Ukrainada o'tkazilayotgan maxsus harbiy operatsiyada ishg'ol (pistirma) guruhlarini tarkibi RKB razvedka bo'linmalari bilan kuchaytirilgan bo'lib, ular quyidagi vazifalarni ya'ni harakatlanish marshrutlari, rayonlarida (sanoat zonalari, RKB xavfli bo'lgan obyektlar), vayron bo'lgan bino, inshootlar hududlarida RKB vaziyat to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish hamda vaziyat to'g'risida doimiy ravishda harbiy boshqaruv organlariga va mahalliy aholiga yetkazish va ushbu vaziyatlarda qo'shinlarni harakatlanish usullarini aniqlash tadbirlarini amalga oshirishmoqda.

Bundan tashqari, qo'shinlar tarkibida hisob tahlil stansiyalari ham o'z vazifalarini bajarishmoqda, ular maxsus harbiy operatsiyalar maydonida RKB vaziyatlar to'g'risida ma'lumotlar yig'ish, umumlashtirish va baholash, vaziyatlarni barcha RF QK boshqaruv organlariga yetkazish tadbirlarini bajarishmoqda.

Rossiya tomonidan Ukraina hududlarini anneksiya qilinishi, shuningdek, Rossiya hududidagi o'ta muhim obyektlarga Ukraina tomonidan tinimsiz zarbalar berilishi voqealarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, urushayotgan tomonlar Ukraina hududlarida joylashgan AESlarda provakatsiyalarni (zarbalar berilishi) amalga oshirish ehtimoli yuqori bo'ladi. Bunday vaziyatlarda Ukraina hududi va unga chegaradosh davlatlarda ham juda chigal radiatsion va kimyoviy vaziyat yuzaga kelish ehtimoli oshib boradi. 1986-yil 26-aprelda sodir bo'lgan Chernobil AESdagi halokat (avariya) oqibatlarini hisobga oladigan bo'lsak Rovno, Xmelniskiy va Zaporozhsk viloyatlarida joylashgan AESlarni vayron etilishi nafaqat Ukraina, Belorussiya, Polsha, Moldova, balki Yevropaning boshqa davlatlariga ham katta xavf tug'diradi (4-rasm).

Jangovar harakatlar zonalarida radiatsion, kimyoviy va biologik xavfli obyektlarni mavjudligi, ushbu obyektlarda texnogen avariya sodir bo'lishi tufayli RKB vaziyat yuzaga kelish ehtimoli oshib boradi. Ushbu vaziyatlarda jangovar harakatlar maydonida RKB muhofaza qo'shinlari tarkibidagi RKB razvedka va maxsus ishlov o'tkazish bo'limlari doimiy ravishda jangovar shay holatda RKB zaharlangan sharoitlarda o'z vazifalarini bajarishga tayyor turishlari talab etiladi.



4-rasm. Zaporozhskdagi atom elektrstansiyasi (Yevropadagi eng yirik AES bo'lib har biri 1000 MVt bo'lgan oltita energiyablokiga ega)

Harbiy maxsus operatsiyalar davrida qo'shin va obyektlarni ko'rinuvchanligini tutun-aerozollarni qo'llab kamaytirish hamda dushmanni aniq nishonga oluvchi va odatiy qurollari zarbalarining samaradorligini kamaytirish tadbirlari RKB muhofaza qo'shinlarini asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu tadbirlar eng muhim va murakkab bo'lib uni bajarish uchun RKB muhofaza qo'shinlari tarkibidagi aeroxollar bilan qarshilik ko'rsatish bo'linmalari bajarishmoqda [2] (5-rasm).



5-rasm. Aeroxollar bilan qarshilik ko'rsatish bo'linmalarining jangovar harakatlar maydonidagi vazifalari

Jangovar harakatlar maydonida ognemyot bo'linmalari samarali qo'llanilmoqda. Ular jang maydonida quyidagi vazifalarni bajarishmoqda: dushmanning artilleriya, havo hujumidan mudofaa qo'shinlariga talafot yetkazish; umumqo'shin bo'linmalarini qo'llab quvvatlash; dushman qo'shinlariga termobarik ognemyotlar bilan zarbalar berish; murakkab bo'lgan sharoitlarida aviatsiya va artilleriyani qo'llashning imkoniyati bo'lmaganda dushmanni uzoq otishga mo'ljallangan istehkomlarini yo'q qilishdan iborat.

Olib borilayotgan jangovar harakatlarning tahlili natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, motoo'qchi brigadasini jang vaqtida qo'llab-quvvatlash uchun og'ir ognemyot (TOS-1A bilan qurollangan) ognemyot vzvodi biriktirilmoqda [2]. Ushbu bo'linma quyidagi tartibda harakatlanmoqda: dushman artilleriyasining otish uzoqligi masofasidan uzoqlikda yer osti (pana joy) inshootida bo'linma dastlabki rayonida joylashadi va biriktirilgan bo'linmaning chaqiruviga binoan bo'linma tarkibi o't ochish pozitsiyasini egallaydi; bo'linma harakatlanishidan oldin dushman dronlariga qarshi tadbirlar

amalga oshiriladi va bo'linma otish pozitsiyasiga yetib kelib nishon koordinatalarini ognemyot tizimi kompyuteriga kiritishadi; belgilangan nishonga ognemyotdan yoppasiga o't ochishadi hamda dron yordamida natijalar kuzatiladi. Barcha holatlarda bo'linma o't ochganidan keyin otish pozitsiyasini almashtiradi yoki dastlabki yer osti inshootiga borib joylashadi (6-rasm).



6-rasm. BM-1 (Solnsepek) TOS-1A tizimi bilan qurollangan bo‘linma otish pozitsiyasida jangovar vazifasini bajarish jarayoni

Og‘ir ognemyot bo‘linmalarining olib borilgan jangovar harakatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, agar jangovar harakatlarning barcha bosqichlarida umumqo‘shin bo‘linmalari komandirlari og‘ir ognemyot tizimini qo‘riqlash va mudofaasiga e‘tibor qaratilsa, ognemyot bo‘linmalari shaxsiy tarkibidagi va ularning qurollaridagi yo‘qotishlar oldi olinadi. Jangovar harakatlarda ognemyot bo‘linmalarida jangovar ta‘minot savollarini qat’iy ravishda bajarilganligi tufayli 1989-yildan va hozirgi davrgacha ularning tarkibida yo‘qotishlar bo‘lmagan [4].

Xulosalar: Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari RKB muhofaza qo‘shinlari bo‘linmalari oxirgi o‘n yil davr ichida qo‘shinlarga va aholiga RKB xavfsizlik sohasidagi tahdidlar kuchayishi tufayli ularning vazifalarining ko‘lami kengayib bormoqda va ular quyidagi tadbirlarni amalga oshirishga asosiy etiborini qaratishmoqda:

Qurolli Kuchlari birlashgan turkumidagi RKB muhofaza bo‘linmalari asosiy e‘tiborni jangovar harakatlar maydonida yadroviy portlash parametrlarini va RKB vaziyatni aniqlash, qo‘shinlar joylashgan pozitsiyalar, harakatlanish marshrutlari, jangovar harakatlar bo‘lib o‘tgan shahar, aholi yashash punktlari, radiatsion, kimyoviy va biologik xavfli bo‘lgan obyektlarda hamda qaror qabul qilish markazlari joylashgan rayonlarda radiatsion, kimyoviy va biologik razvedka, nazorat tadbirlarini amalga oshirishga;

jangovar harakatlar maydonida ognemyot bo‘linmalari samarali qo‘llanilmoqda va ularni qo‘llash jarayonida asosiy e‘tibor TOS-1A bilan qurollangan ognemyot bo‘linmasini qo‘riqlovini amalga oshirishga;

jangovar vazifani bajarish rayonida barcha qurollarga bardosh bera oladigan yer osti istehkomlarini barpo etish va u yerga bo‘linmani joylashtirishga;

otish pozitsiyasiga boradigan marshrutni dronlar yordamida (dushman dronlariga qarshi) astoydil razvedka olib borish va qo‘riqlash, ognemyot bo‘linmasi jangovar vazifasini



bajarganidan keyin otish pozitsiyasini tezlik bilan almashtirish yoki dastlabki yer osti (pana joy) inshootiga borib joylashishga.

Foydalanilgan manbalar:

1. Кошелев С.А., Суменков В.А. Направления совершенствования радиационной, химической и биологической защиты в современных условиях // Военная мысль. 2022. № 1. С. 108-114.
2. Киселёв Р.В., Выполнение задач (мероприятий) радиационной, химической и биологической защиты войсками радиационной, химической и биологической защиты ВС РФ в современных условиях. // Военная мысль. 2022. № 10. С. 59-71.
3. Сообщение официального представителя Министерства обороны РФ о провокации Киева на Запорожской АЭС. URL: https://www.videon.imq.ria.ru/Volume63/Flv/direkt/2022/03/04/2022.03.04_16x9_12ue50wl/ohl.mp4 (дата обращения: 22.05.2025).
4. Алексеев А. Специалисты войск РХБ защиты всегда готовы прийти на помощь // Красная звезда. 2020. 30 ноября.
5. Куланов, Б. Я., & Саодуллаев, А. С. (2021). Развитие альтернативных источников энергетики Узбекистана. In *НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ИННОВАЦИИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ* (pp. 29-32).
6. Арзикулов, Ф. Ф., & Мустафакулов, А. А. (2020). Возможности использования возобновляемых источников энергии в узбекистане. *НИЦ Вестник науки*.
7. Мусаев, Ш., Арзикулов, Ф. Ф., Олимов, О. Н., Норматова, Д. А., & Сатторова, М. А. (2021). Свойства кристаллов кварца. *Science and Education*, 2(10), 201-215.
8. Мустафакулов, А. А., Джуманов, А. Н., & Арзикулов, Ф. (2021). Альтернативные источники энергии. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1227-1232.
9. Отажонов, И. О. (2021). Сурункали буйрак касаллиги бўлган беморлар ҳаёт сифати кўрсаткичлари.
10. Отажонов, И. О. (2020). Кам оксилли парҳез самарадорлигини баҳолаш.
11. Otajonov, I. O., & Urinov, A. M. (2024). Assessment of Quality of Life Indicators of Patients with Cirrhosis of the Liver.
12. Otajonov, I. O. (2023). ANALYSIS OF MICRONUTRIENTS IN BABY FOOD RATION IN THE PRESENCE OF COMPLICATIONS AFTER RICKETS. *Conferencea*, 144-146.
13. Базарбаев, М. И., Эрметов, Э. Я., & Сайфуллаева, Д. И. (2018). Таълимда ахборот технологиялари. *Дарслик, Тошкент*.
14. Базарбаев, М. И., Эрметов, Э. Я., Сайфуллаева, Д. И., & Яхшибоева, Д. Э. (2023). Использование медиатехнологии в образовании. *Журнал гуманитарных и естественных наук*, (6), 94-99.



15.Базарбаев, М. И., & Сайфуллаева, Д. И. (2022). Рахимова Б. Т., Жураева З. Р. Роль информационных технологий в медицине и биомедицинской инженерии в подготовке будущих специалистов в период цифровой трансформации в образовании. *ТТА Ахборотномаси*, 10(10), 8-13.

16.Марасулов, А. Ф., Базарбаев, М. И., Сайфуллаева, Д. И., & Сафаров, У. К. (2018). Подход к обучению математике, информатике, Информационным технологиям и их интеграции в медицинских вузах. *Вестник ташкентской медицинской академии*, (2), 42.

17.Базарбаев, М. И., Сайфуллаева, Д. И., & Рахимов, Б. Т. ЗР Жураева Роль информационных технологий в медицине и биомедицинской инженерии в подготовке будущих специалистов в период цифровой трансформации в образовании. 10.10. 2022. *ТТА. Ахборотномаси*, 8-13.

18.Базарбаев, М. И., Эрметов, Э. Я., & Сайфуллаева, Д. И. Информационно-коммуникационная технология в медицинских вузах. Реформы в медицинском образовании, проблемы и их решения. In *Сборник материалов XII научно методической конференции. Ташкент-2018*.

19.Марасулов, А. Ф., Базарбаев, М. И., Сайфуллаева, Д. И., & Сафаров, У. К. (2018). Подход к обучению математике, информатике, информационным технологиям и их интеграции в медицинских вузах.

20.Фазилова, Л., & Абдуганиева, Ш. (2018). Компьютерные технологии в высшем медицинском образовании. *Стоматология*, 1(4 (73)), 59-61.

21.Abduganieva, S., Fazilova, L., Nurmatova, F., & Khodjaeva, D. (2023). Computer-human interaction: Web technologies in education. *PROBLEMS IN THE TEXTILE AND LIGHT INDUSTRY IN THE CONTEXT OF INTEGRATION OF SCIENCE AND INDUSTRY AND WAYS TO SOLVE THEM:(PTLICISIWS-2022)*, 2789(1), 050005.

22.Nurmatova, F. B., Xuan, R., & Fazilova, L. A. (2024). The advantages of implementing digital technology in education. *Innovations in Science and Technologies*, 1(3), 192-195.

23.Фазилова, Л. А. Масофавий таълимни ташкил этишда онлайн маърузалардан фойдаланишнинг назарий-методологик аҳдмийати. *Замонавий тиббий олий таълим: муаммолар, хорижий тажриба, истикболлар" мавзусидаги VII уқув-услугий анжуман туплами.-УДК*, 004-37.

24.Fazilova, L. A. Studying Medicine In Online Education With The Mobile Application" A To Z Anatomy". *The American journal of Engineering and Technology*, 94-99.

25.Каюмова, М. (2025). ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В КЛИНИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ: ПЕРСПЕКТИВЫ И ВЫЗОВЫ. *Academic research in educational sciences*, (Conference 1), 165-168.





26. Fayziyeva, N. (2021, December). Modeling and Forecasting of Tax Revenue to the Budget for Profit in the Republic of Uzbekistan. In *Proceedings of the 5th International Conference on Future Networks and Distributed Systems* (pp. 420-424).

27. Baxtiyorovna, E. D., Alisherovna, F. N., & Hozhievich, B. E. (2025). HISTORY OF THE DISCOVERY OF RADIOACTIVITY AND X-RAYS, NUCLEAR EXPLOSIONS EXPLANATION OF THE PHENOMENON RESEARCH USING INTERACTIVE METHODS. *Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions*, 3(5), 61-65.

28. Fayziyeva, N. (2025). THE EFFECT OF MAGNESIUM ON PREGNANT WOMEN. *Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing*, 3(5), 60-63.

29. Fayziyeva, N. (2025). THE INTENSITY OF DIABETES CASES AMONG THE POPULATION OF BUKHARA REGION OVER THE PAST 5 YEARS. *International journal of medical sciences*, 1(1), 158-161.

